

**TURIZM – IQTISODIY, IJTIMOIIY VA MADANIY INTEGRATSIYANI
BIRLASHTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA (QIYOSIY TAHLIL)**

Mirodiljon Xomudjonovich BARATOV

professor

yuridik fanlar doktori

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti

Toshkent, O'zbekiston

Elektron pochta: mirodil707@mail.ru

Bori Toxtaxodjayevich AKRAMXODJAYEV

dotsent

yuridik fanlar nomzodi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti

Toshkent, O'zbekiston

Elektron pochta: 1370017a@gmail.com

Soliha ISOMUHAMMEDOVA

mustaqil tadqiqotchi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Toshkent, O'zbekiston

Elektron pochta: solihaisomammedova@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada G'arb mamlakatlari va O'zbekiston olimlarining turizm tushunchasiga oid so'nggi tadqiqotlari tahlil qilingan. Smart tourism, ijtimoiy tarmoqlar va digital marketing, ekologik va barqaror turizm, shuningdek mahalliy va xalqaro ilmiy tajribalarni integratsiya qilish orqali O'zbekistonda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy turizmning iqtisodiy, madaniy va ekologik jihatlarini yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalarni beradi.

Tayanch so'zlar: smart tourism, raqamli marketing, barqaror turizm, ijtimoiy tarmoqlar, O'zbekiston, xalqaro tajriba.

**Туризм как средство объединения экономической, социальной и
культурной интеграции (сравнительный анализ)**

Миродилжон Хомуджонович БАРАТОВ

Профессор

доктор юридических наук

Институт государства и права Академии наук Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

Электронная почта: mirodil707@mail.ru

Бори Тохтаходжаевич АКРАМХОДЖАЕВ

Доцент

кандидат юридических наук

Институт государства и права Академии наук Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

Электронная почта: 1370017a@gmail.com

Солиха ИСОМУХАММЕДОВА

независимый исследователь
Банковско-финансовая академия Республики Узбекистан
Ташкент, Узбекистан
Elektron pochta: solihaisomammedova@gmail.com

Аннотация

В статье проанализированы последние исследования ученых западных стран и Узбекистана по концепции туризма. Рассмотрены возможности развития туризма в Узбекистане через внедрение умного туризма, использование социальных сетей и цифрового маркетинга, продвижение экологически устойчивого туризма, а также интеграцию местного и международного научного опыта. Результаты исследования предоставляют практические рекомендации для улучшения экономических, культурных и экологических аспектов современного туризма.

Ключевые слова: умный туризм, цифровой маркетинг, устойчивый туризм, социальные сети, Узбекистан, международный опыт.

Turizm XXI asrda jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotining eng muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. U nafaqat aholining dam olishi va madaniy ehtiyojlarini qondirish vositasi, balki mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlovchi, hududlar rivojini jadallashtiruvchi va bandlikni oshiruvchi muhim omil sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli turizm tushunchasining ilmiy jihatdan aniq va zamon talablariga mos ta'rifini shakllantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tarixan turizm asosan odamlarning vaqtincha yashash joyidan tashqariga chiqib, dam olish, davolanish, madaniy yoki ma'rifiy maqsadlarda safar qilishi bilan izohlangan. Biroq globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivoji va transport tizimlarining takomillashuvi turizmning mazmunini tubdan o'zgartirdi. Ayniqsa, 2020-yildan keyin yuz bergan COVID-19 pandemiyasi turizm sohasiga nafaqat iqtisodiy, balki nazariy jihatdan ham yangi yondashuvlarni shakllantirdi. Natijada, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda turizm tushunchasini raqamli texnologiyalar, barqaror rivojlanish, xavfsizlik va ijtimoiy mas'uliyat bilan chambarchas bog'lab talqin qilinmoqda.

G'arb mamlakatlari olimlari tomonidan olib borilgan so'nggi tadqiqotlarda turizm endi faqatgina sayohat jarayoni sifatida emas, balki murakkab tizim – ya'ni turist, mezbon hudud, texnologiyalar, xizmatlar va boshqaruv mexanizmlarining

o‘zaro aloqasi sifatida ko‘rib chiqilmoqda. “Smart tourism”, “sustainable tourism”, “digital tourism” kabi yangi ilmiy konsepsiyalar turizmga berilgan an‘anaviy ta‘riflarni kengaytirib, uni innovatsion va strategik soha sifatida baholash imkonini bermoqda. Bu yondashuvlar turizmni rejalashtirish, boshqarish va rivojlantirishda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish zaruratini yanada kuchaytirdi.

Shu bilan birga, milliy ilmiy adabiyotlarda turizm tushunchasi ko‘proq mamlakatning tarixiy-madaniy merosi, ziyorat turizmi, ichki turizm va xizmatlar sohasining rivoji bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Bu esa xorijiy va mahalliy ilmiy yondashuvlar o‘rtasida ma‘lum farqlar mavjudligini ko‘rsatadi.

Su munosabat bilan, maqsadimiz – xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlar asosida G‘arb mamlakatlari fikriga ko‘ra turizm tushunchasining zamonaviy talqinlarini tahlil qilish, ularning nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berish hamda ushbu yondashuvlarning O‘zbekiston turizm sohasini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini baholashdan iborat.

Maqolada tadqiq etilayotgan mavzuning nazariy va ilmiy asoslarini o‘rganish maqsadida xorij va mahalliy olimlarning ishlari o‘rganildi. Xorij olimlaridan, G.J. Wei va R. Ab-Rahim smart turizm tadqiqotining hozirgi holatini bibliometrik tahlil orqali ko‘rsatadi va asosiy mavzularni, jumladan texnologiyalar, barqarorlik va raqamli innovatsiyalarni aniqlaydi [8]. Bu ish turizm konsepsiyasini texnologik kontekstga kengaytiradi – ya‘ni an‘anaviy sayohat tushunchasidan tashqari, raqamli transformatsiya va smart ijroboshini asosiy o‘ringa qo‘yadi. Bu hozirgi global tendensiyaga juda mos keladi va akademik tahlilga yangi yo‘nalish olib kiradi.

A. Galvão, F. Brito va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqot zamonaviy turizm nazariyasidagi muhim muammolardan birini – “smart tourism” tushunchasining yagona va umumqabul qilingan ta‘rifga ega emasligini ochib berdi. Mualliflar turli mamlakatlar va ilmiy maktablar vakillarining fikrlarini jamlab, smart turizm asosan raqamli texnologiyalar, ma‘lumotlar almashinuvi, turist tajribasini optimallashtirish va boshqaruv tizimlari bilan bog‘liq ekanini

ko'rsatadilar. Shu bilan birga, ular ushbu tushuncha hali to'liq standartlashmaganini va ilmiy hamjamiyatda turlicha talqin qilinayotganini asosli dalillar bilan isbotlaydilar [9]. Mazkur yondashuvning ijobiy jihati shundaki, mualliflar turizmni an'anaviy "sayohat va dam olish" doirasidan chiqarib, uni murakkab, texnologik va interaktiv tizim sifatida talqin qilish zaruratini ilgari suradilar. Bu qarash zamonaviy global jarayonlarga, xususan raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalarining turizm sohasiga chuqur kirib borishiga to'liq mos keladi. Smart texnologiyalar yordamida turist oqimini boshqarish, xizmatlar sifatini oshirish va hududiy rivojlanishni muvofiqlashtirish bugungi kunda real ehtiyojga aylangan. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotda ma'lum bir cheklangan jihatlar ham kuzatiladi. Xususan, mualliflar smart turizm tushunchasini ko'proq texnologik omillar bilan bog'lab, uning ijtimoiy, madaniy va hududiy xususiyatlarini ikkilamchi darajaga tushirib qo'yganliklari seziladi. Turizm faqat texnologiyalar majmuasi emas, balki insoniy tajriba, madaniy muloqot va ijtimoiy qadriyatlar bilan ham chambarchas bog'liq jarayondir. Agar smart turizm faqat raqamli platformalar va texnik vositalar orqali talqin qilinsa, uning mohiyati torayib qolishi mumkin. Muallif pozitsiyasiga ko'ra, Galvão va hammualliflarning ishi turizm kontsepsiyasini zamonaviy sharoitda qayta ko'rib chiqishga kuchli turtki beradi, biroq ushbu yondashuvni yanada mukammallashtirish uchun texnologik va gumanitar yondashuvlarni integratsiya qilish zarur. Ya'ni, smart turizm tushunchasi nafaqat raqamli infratuzilma va ma'lumotlar tizimi, balki turistning madaniy tajribasi, mahalliy aholi manfaatlari va barqaror rivojlanish tamoyillarini ham qamrab olishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqot turizm tushunchasining kelajakdagi evolyutsiyasiga muhim ilmiy asos yaratadi. U an'anaviy turizm ta'riflarini qayta ko'rib chiqishga undaydi va turizmni raqamli boshqariladigan, lekin inson markazida bo'lgan kompleks tizim sifatida shakllantirish imkoniyatini ochib beradi. Bu esa, ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston sharoitida, zamonaviy turizm strategiyalarini ishlab chiqishda katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

R. Vazning tadqiqoti smart turizm destinatsiyalarining rivojlanish bosqichlarini va ularni shakllantiruvchi asosiy omillarni tahlil qilishga qaratilgan. Muallif smart turizmni alohida texnologik hodisa sifatida emas, balki destinatsiya darajasida amalga oshiriladigan kompleks jarayon sifatida ko'rib chiqadi. Tadqiqotda mahalliy hamjamiyat, boshqaruv organlari va texnologik infratuzilmaning o'zaro aloqasi muhim omil sifatida ta'kidlanadi [10]. Mazkur yondashuvning kuchli tomoni shundaki, Vaz smart turizmni faqat innovatsiyalar bilan cheklab qo'ymaydi, balki uni hududiy rivojlanish strategiyasi bilan bog'laydi. Bu turizm konsepsiyasini makro darajada tushunishga imkon beradi va uni alohida xizmatlar majmuasi emas, balki destinatsiya boshqaruvining muhim elementi sifatida talqin qiladi. Muallif pozitsiyasiga ko'ra, ushbu ish smart turizm tushunchasini amaliyotga yaqinlashtiradi. Biroq, tadqiqotda turistning individual tajribasi va psixologik omillari yetarlicha yoritilmagan. Shuning uchun, bu yondashuvni Galvão va boshqalar ilgari surgan texnologik ta'riflar bilan birgalikda qo'llash orqali turizm konsepsiyasini yanada mukammal shakllantirish mumkin.

R. Gonzalez o'z tadqiqotida raqamli transformatsiya va barqarorlik tushunchalarini turizm nazariyasiga integratsiya qiladi. Muallif turizmni iqtisodiy foyda olish vositasi sifatida emas, balki ekologik, ijtimoiy va madaniy muvozanatni saqlovchi tizim sifatida talqin etadi [11]. Mazkur yondashuv turizm konsepsiyasini tubdan kengaytiradi. Agar an'anaviy ta'riflarda turizm asosan turist va hudud o'rtasidagi aloqaga qaratilgan bo'lsa, Gonzalez ushbu aloqani kelajak avlod manfaatlarini bilan bog'laydi. Bu esa turizmni strategik rejalashtirishda yangi mezonlarni joriy etadi. Muallif pozitsiyasiga ko'ra, ushbu ish turizm konsepsiyasini barqaror rivojlanish bilan bog'lash orqali uni zamonaviy global muammolar bilan uyg'unlashtiradi. Biroq, tadqiqot ko'proq nazariy darajada qolib, rivojlanayotgan davlatlar sharoitida qo'llash mexanizmlarini batafsil ochib bermaydi. Shu sababli, bu yondashuvni milliy kontekstga moslashtirish muhim hisoblanadi.

“Sustainable Development Goals in Tourism Research” mazkur ilmiy ish turizm tadqiqotlarida BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG) qanday

integratsiya qilinayotganini tahlil qiladi. Mualliflar turizmni ijtimoiy tenglik, ekologik muhofaza va iqtisodiy barqarorlik bilan uzviy bog‘liq tizim sifatida talqin qiladilar [12]. Bu yondashuv turizm konsepsiyasini tor iqtisodiy doiradan chiqarib, uni global siyosiy va ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘laydi. Turizm endilikda nafaqat daromad manbai, balki barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi vosita sifatida ko‘riladi. Ushbu tadqiqot turizm tushunchasini normativ darajaga olib chiqadi, ya’ni turizm qanday bo‘lishi kerakligi haqida aniq yo‘nalish beradi. Biroq ushbu normativ yondashuvni amaliy mexanizmlar bilan boyitish zarur. Aks holda, turizm konsepsiyasi nazariy shior darajasida qolib ketishi mumkin.

John Tribe o‘zining «The Economics of Tourism» asarida G‘arb mamlakatlarida turizmga beriladigan bahoni an’anaviy “sayohat va hordiq” tushunchasidan ancha kengroq doirada talqin qiladi [13]. Uning qarashiga ko‘ra, turizm dam olishga xizmat qiluvchi oddiy faoliyat emas, balki iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. G‘arb mamlakatlarida turizm, avvalo, daromad keltiruvchi mexanizm sifatida baholanadi. Ya’ni, sayyohlar oqimi orqali mehmonxona xo‘jaligi, transport, ovqatlanish, savdo va madaniy xizmatlar rivojlanadi hamda bu jarayon mamlakat yalpi ichki mahsulotining oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, turizm xizmatlar sektorini kengaytirib, yangi ish o‘rinlari yaratadi va aholining bandligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, Tribe ta’kidlaganidek, G‘arb mamlakatlarida turizm milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlovchi omil sifatida ham qaraladi. Turizm orqali iqtisodiyot tarmoqlari diversifikatsiya qilinadi, ya’ni daromadlar faqat sanoat yoki qishloq xo‘jaligiga bog‘lanib qolmaydi. Bu esa iqtisodiy xavflarni kamaytirib, davlatning umumiy iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi. John Tribe fikridan kelib chiqib aytish mumkinki, G‘arb mamlakatlari qarashida turizm – bu dam olish faoliyati emas, balki iqtisodiy o‘sish, xizmatlar sohasini rivojlantirish va milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi kompleks tizimdir.

Cooper va hammualliflarning fikriga ko‘ra rivojlangan mamlakatlarda turizm nafaqat xizmatlar sohasi yoki dam olish faoliyati sifatida emas, balki ijtimoiy farovonlikni oshirish, madaniy almashinuvni qo‘llab-quvvatlash hamda

barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash vositasi sifatida talqin etiladi [14]. Bu oddiygina dam olishdan tashqari, turizm jamiyatning umumiy farovonligi va yashash sifatini yaxshilashga xizmat qiladi degani. Masalan, bandlik darajasi oshadi, xizmatlar sifati yaxshilanadi, mahalliy infratuzilma – transport, sog'liqni saqlash, dam olish maskanlari rivojlanadi. Natijada, aholining hayot sifati yaxshilanadi va turizm manfaatdor tomonlarining (xizmat ko'rsatuvchi, ishchi, oilalar) ijtimoiy foydasi oshadi. Madaniy almashinuvni ham rivojlantiradi – rivojlangan mamlakatlar turizmni faqat iqtisodiy emas, balki madaniy ko'priki sifatida ham ko'radi. Turistlar boshqa xalqlar madaniyati, urf-odatlarini, qadriyatlarini bilan tanishadi, shu orqali xalqaro tushuncha, hurmat va o'zaro munosabatlar mustahkamlanadi. Bu ijtimoiy uyg'unlikni oshiradi va madaniy xilma-xillikni qadrlashni rag'batlantiradi. Shuningdek, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi – turizm xizmatlar sektori juda ko'p tarmoqlarni qamrab oladi: transport, mehmondo'stlik, ovqatlanish, ko'ngil ochar xizmatlar, san'at va tadbirlar. Rivojlangan mamlakatlarda bu tizim samarali boshqarilib, uzoq muddatli daromad manbai bo'ladi. Barqaror o'sish shundaki, turizm orqali iqtisodiyot diversifikatsiya qilinadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, investitsiyalar jalb qilinadi va umumiy iqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Mahalliy olimlar ham bu masalani teran o'rgangan. Masalan, Z. Abdullayev o'z tadqiqotlarida turizmni iqtisodiyotning mustaqil va strategik sektori sifatida ko'rib, uning rivojlanishida moliyaviy va soliq mexanizmlarining o'rnini asoslab beradi [1]. Muallif turizm faoliyatini tartibga solish orqali investitsiya muhitini yaxshilash va xizmatlar sifatini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. Mazkur ish turizm tushunchasini iqtisodiy boshqaruv kontekstiga olib chiqadi. Fikrimizcha, Abdullayevning yondashuvi turizmni faqat madaniy yoki rekreatsion faoliyat sifatida emas, balki davlat tomonidan boshqariladigan iqtisodiy tizim sifatida anglash imkonini beradi. Biroq tadqiqotda raqamli transformatsiya va zamonaviy smart yondashuvlar yetarlicha integratsiya qilinmagan, bu esa konsepsiyani zamon talabiga moslashtirishni cheklaydi.

M. Kurbanova ziyorat turizmini turizmning alohida shakli sifatida tahlil qilib, uning motivatsion va ma'naviy asoslarini yoritadi. Muallif ziyorat turizmini diniy qadriyatlar, madaniy meros va hududiy identitet bilan bog'liq murakkab jarayon sifatida talqin qiladi [3]. Bu tadqiqot turizm tushunchasining gumanitar va madaniy qatlamini ochib beradi. Bizningcha, Kurbanovanning ishi turizm konsepsiyasini kengaytiradi, chunki u sayyohni faqat iste'molchi emas, balki ma'naviy ehtiyojga ega subyekt sifatida ko'rsatadi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvni iqtisodiy va raqamli mexanizmlar bilan uyg'unlashtirish zarur.

D. Mustafoulova tadqiqotlarida ijtimoiy tarmoqlarning turist xulq-atvoriga ta'siri, turizm marketingi va axborot tarqatishdagi roli tahlil qilinadi. Muallif raqamli kommunikatsiya turizm qarorlarini shakllantirishda muhim omilga aylanganini asoslaydi [4]. Bu ish mahalliy ilmiy adabiyotda kam yoritilgan raqamli omillarni turizm kontsepsiyasiga olib kiradi. Fikrimizcha, Mustafoulovaning yondashuvi turizmni axborotga asoslangan jarayon sifatida talqin qilishga yordam beradi. Ushbu fikr xorijiy "smart tourism" nazariyalari bilan uyg'un bo'lib, milliy ilmiy maktab uchun muhim qadamdir.

O. Umarovning tadqiqotlari O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi asosida madaniy turizmni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan. Muallif turizmni milliy o'zlikni saqlash va targ'ib qilish vositasi sifatida ko'radi [6]. Umarovning yondashuvi turizm konsepsiyasining identitet va madaniyat bilan bog'liq jihatlarini kuchaytiradi. Bizningcha, bu ish turizmni faqat iqtisodiy foyda manbai emas, balki madaniy diplomatiya vositasi sifatida tushunishga xizmat qiladi. Ammo texnologik va innovatsion komponentlar yetarlicha yoritilmagan.

A. Qodirov va hammualliflar – mazkur tadqiqot turizm rivojiga ta'sir qiluvchi makroiqtisodiy, moliyaviy va institutsional omillarni kompleks tahlil qiladi. Mualliflar turizmni davlat siyosati va hududiy rivojlanish bilan uzviy bog'liq soha sifatida ko'rsatadilar [7]. Bu ish turizm konsepsiyasini strategik rejalashtirish darajasiga olib chiqadi. Fikrimizcha, Qodirov va hammualliflarning yondashuvi turizmni milliy rivojlanish instrumenti sifatida tushunishga yordam

beradi. Biroq, zamonaviy global trendlar – raqamlashtirish va barqarorlik masalalari bilan bog‘lash kuchaytirilishi lozim.

S. Isomammedova ta’kidlaganidek, so‘nggi yillarda turizm butun dunyoda bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham milliy iqtisodiyotning muhim o‘shish nuqtalaridan biriga aylandi. Bu soha nafaqat o‘zi uchun, balki unga aloqador boshqa tarmoqlarni ham rivojlantirishga xizmat qiluvchi kuch vazifasini bajarmoqda, shuningdek aholi bandligini ta’minlash va aholi hayot darajasini yaxshilashga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi [2]. Bu turizmning faqat sayohat yoki dam olish vositasi emas, balki mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida strategik rol o‘ynaydigan soha ekanini ko‘rsatadi. G‘arb mamlakatlari misolida ham turizm shunday qadrlanadi: ular turizmni milliy daromad manbai sifatida, shuningdek, yangi ish o‘rinlari yaratish, madaniy almashuvni rivojlantirish va ijtimoiy farovonlikni oshirish vositasi sifatida ko‘rishadi. Muallif shuni ham ta’kidlaydiki, turizmning mohiyati shunchaki xizmat ko‘rsatish bilan cheklanmaydi. U iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy integratsiyani birlashtiruvchi vosita sifatida ham ahamiyatlidir. Shu nuqtayi nazardan, G‘arb mamlakatlari tajribasi va O‘zbekistondagi rivojlanish strategiyasi o‘xshash tamoyillarga asoslanadi: turizmni milliy taraqqiyot va aholi farovonligini oshirish vositasi sifatida ko‘rish.

N. Normatov tadqiqoti qishloq turizmining rivojlanishi Yevropaning taraqqiy etgan mamlakatlari tajribasiga asoslangan holda amalga oshirganda, u nafaqat hududiy iqtisodiy o‘shishni ta’minlaydi, balki mahalliy aholi bandligini oshirish va madaniy merosni asrab-avaylashga xizmat qiladi [5]. Mazkur fikrdan ko‘rinadiki, G‘arb mamlakatlari qarashida turizmning mohiyati faqat sayyohlar oqimini oshirish bilan cheklanmaydi. Aksincha, u hududlarni kompleks rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash hamda milliy va mahalliy madaniyatni saqlab qolishga qaratilgan tizimli mexanizm sifatida baholanadi. Ayniqsa, Yevropa mamlakatlarida qishloq turizmi barqaror rivojlanish modeli sifatida qaralib, iqtisodiy manfaatlar bilan bir qatorda ijtimoiy va madaniy qadriyatlar uyg‘unligi ta’minlanadi.

Tadqiqotimizda G'arb mamlakatlarida turizm tushunchasini shakllantirish bo'yicha so'nggi ma'lumotlar tahlil qilindi va ularning O'zbekiston turizm tizimigagi tatbiqi ko'rib chiqildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, G'arbiy olimlar turizmni an'anaviy sayohat tushunchasidan tashqari, smart tourism, sustainable tourism va digital tourism kabi yangi yondashuvlar orqali ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik tizim sifatida talqin qiladilar. Bu yondashuvlar mehmonlarga qulaylik yaratish, turizm infratuzilmasini samarali boshqarish, resurslarni tejash va ekologik xavfsizlikni ta'minlash imkonini beradi.

Mahalliy olimlar tadqiqotlari esa O'zbekistonda turizmni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy nuqtayi nazardan chuqur tahlil qilgan. Ularning ishlariga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy kommunikatsiya vositalari turizmni rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi va mahalliy hamda xalqaro tajribani uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, tahlil shuni ko'rsatadiki, turizmni faqat transport yoki mehmonxona xizmatlari bilan chegaralash noto'g'ri. Turizm – bu butun iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tizim bilan bog'liq murakkab hodisa, uning rivojlanishi uchun raqamli, ilmiy va barqaror yondashuvlarni hisobga olish zarur. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonda turizmni samarali rivojlantirish uchun texnologik va raqamli tizimlarni joriy etish, mahalliy ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish va xalqaro tajribani o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, turizmga bugungi kunda nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki madaniy almashinuv, ijtimoiy farovonlik va ekologik barqarorlikni ta'minlovchi strategik soha sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqotimiz yakunida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Smart tourismni rivojlantirish – O'zbekistonda turizmni texnologik, raqamli va barqaror tizim sifatida rivojlantirish. Turizmni raqamli va texnologik tizim sifatida rivojlantirish O'zbekistonda mehmonlar uchun qulayliklarni oshiradi, xizmatlarni tezlashtiradi va avtomatlashtirilgan tizimlar orqali resurslarni tejashga yordam beradi. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasini samarali boshqarish

imkoniyati paydo bo‘ladi, bu esa mamlakatni zamonaviy raqamli turizm markaziga aylantirishga yordam beradi.

Ijtimoiy tarmoqlar va digital marketingdan foydalanish – turizmni targ‘ib qilish va mijozlar bilan interaktiv aloqani kuchaytirish maqsadida internet va ijtimoiy platformalarni keng qo‘llash hamda shu orqali O‘zbekistonning turistik salohiyatini global miqyosda targ‘ib qilish. Turistlar bilan interaktiv aloqalar yaratish orqali ularning qoniqishi oshadi, sayohat rejalari soddalashadi va mamlakatga keladigan turistlar soni ortadi. Shu bilan birga, marketing kampaniyalari orqali brend imidjini kuchaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish mumkin.

Ekologik va barqaror turizmni ilgari surish – resurslarni tejash va ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish hamda O‘zbekistonga moslashtirish. Resurslarni tejash va ekologik muvozanatni saqlash orqali O‘zbekistonning tabiiy va madaniy merosi kelajak avlodlar uchun saqlanadi. Bu uzoq muddatli iqtisodiy foyda beradi, chunki barqaror turizm turistlar uchun barqaror va sifatli tajriba yaratadi, shuningdek, ekologik turizmning rivojlanishiga imkon beradi.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish – O‘zbekiston olimlari tomonidan turizmni iqtisodiy va madaniy nuqtayi nazardan chuqur tadqiq qilish va natijalarni siyosat va infratuzilmani rejalashtirishda qo‘llash. O‘zbek olimlari tomonidan turizmni iqtisodiy va madaniy jihatdan chuqur tadqiq qilish siyosat va infratuzilmani rejalashtirishda asos bo‘ladi. Bu milliy sharoit va imkoniyatlarni hisobga olgan holda strategiyalar ishlab chiqish imkonini beradi, resurslar samarali taqsimlanadi va turizm sektori barqaror rivojlanadi.

Xalqaro tajriba bilan integratsiya – G‘arb mamlakatlarining ilg‘or tajribalarini tahlil qilib, ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish va amaliyotga joriy etish. G‘arb mamlakatlarining ilg‘or tajribalarini o‘rganish va ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali xizmatlar sifatini oshirish, xalqaro standartlarga javob beradigan turistik xizmatlar yaratish mumkin. Bu esa

mamlakatni xalqaro miqyosda raqobatbardosh qiladi, turistlar sonini ko‘paytiradi va iqtisodiy daromadni oshiradi.

Ushbu yondashuvlar O‘zbekiston turizmini nafaqat iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, balki xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, smart tourism va raqamli tizimlar joriy qilinsa, turizm xizmatlari sifatini oshirish, turistlar sonini ko‘paytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev, Z. S. Turizm sohasining iqtisodiyotda tutgan o‘rni va turistik faoliyatni soliqqa tortishning nazariy konseptual asoslari //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2014. – №2(9). – 29–35. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss9-pp29-35>.
2. Isomammedova S. M. Turizm sanoati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omili sifatida. UZA. 2025. <https://cdn.uza.uz/2025/09/14/11/42/zxiLKvv7Jm1ss2o3IASPhWbHZBShOvI1.pdf>
3. Kurbanova M. X. (2023). Ziyorat turizmiga ijtimoiy hodisa sifatida tarixiy-ilmiy yondashuv //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2023. –11(1), a45. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss1/a45.
4. Mustafoqulova D. A. (2025). Ijtimoiy tarmoqlarning turizm rivojlanishiga ta’siri //Journal of Universal Sciency Research, 2025. – 3(11).
5. Normatov S. A., Bayqabilov X. M. Turizmning taraqqiyotida qishloq turizmining zamonaviy konsepsiyalari. Yangi O‘zbekistonda milliy turizm istiqbollari, 2024. – 1(01). <https://ojs.qarshidu.uz/index.php/tc/article/view/725>.
6. Umarov O. O‘zbekistonda madaniy turizm istiqbollari //Qo‘qon Universiteti Xabarnomasi, 2024. – 13(1039). <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1039>.
7. Qodirov A.Sh., Qamariddinova G.G‘., Eshmurodova S.H. (2024). O‘zbekistonning turizm rivojlanishiga ta’sir etuvchi iqtisodiy va moliyaviy omillar //Qarshi State University Sciency Journal, 2024.

8. Wei, G.J. and Ab-Rahim, R. (2025). The current state of smart tourism research: a bibliometric analysis. *Global Advances in Business Studies*, 4(1), 1-13, <https://doi.org/10.55584/Gabs.004.01.1>.
9. Galvão, A., Brito e Abreu, F., Joanaz de Melo, João. Toward a Consensual Definition for Smart Tourism and Smart Tourism Tools. In: Kornyshova, E., Deneckère, R., Brinkkemper, S. (eds) *Smart Life and Smart Life Engineering*. Springer, 2025// https://doi.org/10.1007/978-3-031-75887-4_8.
10. Vaz et al. *Discover Sustainability* (2025) 6:682// <https://doi.org/10.1007/s43621-025-01590-2>.
11. Gonzalez, R., Gasco, J., & Llopis, J. (2025). Digital sustainable tourism. A research review. *ESIC Market*, 56(3), e444. <https://doi.org/10.7200/esicm.56.444>.
12. Lavaredas et al. *Discover Sustainability* (2025) 6:759// <https://doi.org/10.1007/s43621-025-01587-x>.
13. Tribe, J. (2020). *The economics of recreation, leisure and tourism* (6th ed.). Routledge.
14. Cooper, C., Fletcher, J., Fyall, A., Gilbert, D., & Wanhill, S. (2008). *Tourism: Principles and practice* (4th ed.). Pearson Education.